

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
H.A.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rinov	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 371.126..356(075.1)

BO'LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI**ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ДОПРИЗЫВНОГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ****THE PROBLEM OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL TRAINING OF PRE-CONTRACTION MILITARY EDUCATION TEACHERS****Karimova Mukaddas Otajonovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti. p.f.n.**Tojiyev Hakimjon Xoliqovich²**²Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi.**Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi, ta'limni modernizatsiyalash jarayoni, kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, eng yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish, yangi axborotlarni izlash va egallash ehtiyoji, ilg'or tajribalarni o'rganish ehtiyoji, o'quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni, talabning shaxsiy imkoniyatlari, pedagogik mahoratning yuqori darajasiga erishishni ko'zlash, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchisini tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodik asoslari, talaba-yoshlar harbiy ta'lim sirlari bilan birga ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, milliy-ma'naviy qadriyatlar, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi hamda bilim salohiyati va dunyoqarashining shakllanishi, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda umumiy kasbiy va shaxsiy sifatlar tarkibi, kasbiy-pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish texnologiyasi, motivatsion kasbiy va pedagogik yo'naltirish, o'z bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalarini egallash va amalga oshirish, kelajakdagi kasbiy faoliyatga bo'lgan qadriyatlarga munosabati va muvaffaqiyatga erishish istagi, kreativlikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan bilim faoliyatining ijodiy xususiyatlari, prakseologik kasbiy muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyati, kasbiy qadriyatlar, bilim, ko'nikma va qobiliyatlari, mutaxassis sifatida o'zini o'zi anglashi, "Umumharbiy nizomlari" va "Saf tayyorgarligi" o'quv fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda texnologik yondashuv, "Flipped Class" texnologiyasidan foydalanish bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема развития профессионально-педагогического мастерства преподавателя допризывного образования. процесс модернизации образования, эффективная организация профессиональной деятельности, стремление к освоению самых современных знаний, поиск и получение информации, изучение передового опыта, учебные пособия, содержание педагогической деятельности, личность и возможности студента, стремление к достижению уровня педагогического мастерства, методические основы стандартизации процесса достижения успехов в педагогической деятельности, моделирования профессионально-педагогической деятельности, обучения будущих преподавателей военного образования, знания, полученные от предков вместе с секретами военной и образовательной деятельности студентов, на основе этики, обычаев, национально-культурных ценностей, опыта, самоопределения и формирования потенциала и мировоззрения, общепрофессиональный и личностный состав преподавателей военного образования до предстоящего призыва; особенности профессионально-педагогической деятельности, технологии реализации организационно-педагогических условий, мотивационное профессиональное и педагогическое обучение, приобретение и реализация своих знаний, умений, навыков, отношение к будущей профессиональной деятельности и стремление к успеху, творчество и особенности образовательной деятельности, способствующие развитию творчества, умение творчески реагировать на проблемы праксеологической профессии, профессионализм, знания, навыки и умения, профессиональное самосознание, использование современных образовательных технологий при преподавании учебных предметов «Общевойсковые уставы» и «Чистое обучение», технологического подхода, технологии «Flipped Class» для обучения будущих военных и преподавательских кадров и организации образовательного.

Abstract

This article examines the problem of the development of professional and pedagogical skills of a teacher of pre-conscription education. the process of modernization of education, effective organization of professional activity, striving for the development of the most modern knowledge, search and receipt of information, study of best practices, textbooks, content of pedagogical activity, personality and capabilities of the student, striving to achieve the level of pedagogical skill, methodological foundations of standardization of the process of achieving success in pedagogical activity, modeling of professional pedagogical activity, training of future teachers of military education, knowledge, received from the ancestors, along with the secrets of military and educational activities of students, based on ethics, customs, national and cultural values, experience, self-determination and formation of potential and worldview, the general professional and personal composition of teachers of military education before the upcoming conscription; features of professional and pedagogical activity, technologies for the implementation of organizational and pedagogical conditions, motivational professional and pedagogical training, acquisition and realization of one's knowledge, skills, attitude to future professional activity and striving for success, creativity and features of educational activities that contribute to the development of creativity, the ability to creatively respond to the problems of the praxeological profession, professionalism, knowledge and abilities, professional self-awareness, the use of modern educational technologies in teaching academic subjects "General Military Regulations" and "Pure learning", a technological approach, "Flipped Class" technology for training future military and teaching staff and the organization of educational.

Kalit so'zlar: *bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisi, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, kasbiy va shaxsiy sifatlar, texnologik yondashuv.*

Ключевые слова: *преподаватель военного образования до призыва, профессионально-педагогическая подготовка, профессионально-личностные качества, технологический*

Key words: *teacher of military education until the future call, professional-pedagogical training, professional and personal qualities, technological approach.*

KIRISH

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liqdir. Islohotlarning joriy bosqichida talaba-yoshlar harbiy ta'lim sirlari bilan birga ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, milliy-ma'naviy qadriyatlar, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi hamda bilim salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatni kasb etadi. Shu bilan birga, chaqiriqqacha bo'lgan talaba-yoshlarda milliy armiyamiz talabidan kelib chiqqan holda yuqori darajadagi professional bilim va ko'nikmalarni shakllantirish harbiy pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.[21]

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasini tub mohiyatini chuqur anglagan xolda, armiyamiz safiga vatan himoyachilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishimizni taqozo etmoqda. Hozirda respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlash sifatini yaxshilash maqsadida ularni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni harbiy ta'lim jarayoniga keng tadbiiq etilishi pedagogik muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Oliy ta'limda pedagog kadrlarni tayyorlash, bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda texnologik yondashuv muammolariga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.[23]

Tadqiqotchilardan A.Yu.Sotvoldiyev harbiy mashg'ulotlarni olib borishdagi ta'lim berish haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: harbiy mashg'ulotlarni olib borishdagi ta'lim berish ham xuddi boshqa soha fanlaridagi kabi ta'lim jarayoni (mashg'ulot rahbarining faoliyati) va o'zlashtirish jarayoni (talaba, faoliyati)dan iborat bo'ladi.[15]

Talabalarning darslarni o'zlashtirish jarayonidagi faoliyatlari bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdan iborat va u tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'langan xolda amalga oshiriladi. Harbiy ta'lim berish bo'yicha pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llashda mashg'ulotlarning o'ziga xos tomonlarini hisobga olinishi muhim shartlardan biri hisoblanadi.[98;149-b.].

S.S.Yarashev "Zamonaviy harbiy o'quv darslarida texnologik kompetentlik faoliyatini joriy etish – innovatsion usulni qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar harbiy ta'lim jarayoni hamda o'qituvchi va bo'lajak ofitserlar faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi"-deb ta'kidlab o'tadi.[24; 102-b.].

N.A.Muslimovning tadqiqotlari pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash, uning kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodik asoslari,

bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini shakllanganlik darajasini baholash metodikasi va pedagogika fanlarining bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishdagi imkoniyatlari kabi muammolarning yechimiga qaratilgan.[10]

NATIJA VA MUHOKAMA

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning asosiy maqsadi pedagogik faoliyati sohasida kasbiy mahorat, mutaxassislik bilimlar tizimi hamda bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishdan iborat. Yakuniy maqsad nafaqat harbiy ta'lim o'qituvchisining mavjud muammolarni hal etishga qodirligini qayd etadi, balki uni umuminsoniy taraqqiyot hamda chaqiriqqacha harbiy ta'lim pedagog kadrlarni tayyorlashning istiqbolli muammolarini hal etishga yo'naltirishni anglatadi.[15]

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning asosiy maqsadi sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda asosiy e'tibor o'quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni va talabaning shaxsiy imkoniyatlari asosida shakllantirishga qaratiladi;

- kasbiy faoliyatning mazmuni, vazifalari, ushbu jarayonda hal etiluvchi muammolar va yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan qiyinchiliklar xususida yaxlit tasavvurga ega bo'lgan holda shaxsiy faollikka erisha olishiga asoslanadi;

- bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisini psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tayyorlashni aniq maqsadiga, ya'ni ta'lim muassasasida tashkil etiluvchi chaqiriqqacha harbiy ta'limning o'ziga xosligi bilan belgilanadigan tuzilmasiga shuningdek mazmuniga yo'naltiriladi;

- bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatidan kutiladigan va erishishi mumkin bo'lgan natijalar, talaba shaxsiga, uning yo'nalganligi (talablari, qiziqishi, qadriyatli yo'nalishi, ishi, ongi, sabablari)ga, ma'lumot darajasi (bilim, ko'nikma, malakalarini doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati)ga;

- tarbiyalanganlik holatiga (ma'naviy, estetik, jismoniy, mehnat va hokazo jihatdan), ijtimoiylashuviga (faol kasbiy va ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirishi, ijtimoiy va qadriyatli qoidalarni qabul qilishi);

- madaniyatligiga (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini qabul qila olishi, intellektual, madaniyat, aqliy va jismoniy madaniyati, munosabatlari mazmuni va hulqi) kabi holatlariga qaratiladi.[18]

O'qituvchilarini tayyorlashda umumiy kasbiy va shaxsiy sifatlar tarkibi quyidagilar:

- motivatsion xislatlar – kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi rag'bat, ya'ni eng yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish, yangi axborotlarni izlash va egallash ehtiyoji, ilg'or tajribalarni o'rganish ehtiyoji, pedagogik mahoratning yuqori darajasiga erishishni ko'zlash, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ko'zlaganlik, pedagogik jamoasidagi barcha kasbdoshlari tomonidan tan olinishga intilish, ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini bilishga intilish, o'quv mashg'ulotlar davomida qo'llanilayotgan yangi materiallar, texnika va texnologiyalar haqida bilimlarga ega bo'lish kabilar kiradi;

- intellektual salohiyatga ko'ra – pedagogik fikrlash (pedagogik dalil, hodisa, jarayon hamda tizimlarni tahlil qila olish, pedagogik vaziyatlarda ijodiy yondashuv, moslashuvchan, harakatchan), pedagogik ziyraklik, pedagogik bashorat qila olish, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, pedagogik ijodkorlik, texnologik jarayonning asoslari, analiz, sintez va boshqalar;

- irodaviy sifatleri – pedagogik muloqotda chidam va o'zini tutib tura olishda, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda, pedagogik maqsadlarga erishishda, o'z faoliyatining ahamiyatini oshirishda, o'zligini rivojlantirishda, texnik fikrlashda, texnik ob'ektlarni ishga tushirishda, sozlashda, ta'mirlashda, rejalashtirilgan texnologik jarayonni oxiriga etkazishdagi qat'iylik;

- hissiy sifatlariga ko'ra – talabalarning o'y-kechinmalari, quvonch va tashvishlarini tushuna olish, hamfikrlilik, mamnunlik, ochiqlik hissiyoti, talabalarning xususiyatlarini e'tiborga olish, texnik obyektlar hamda amaliy harakatlarning murakkabligini his qilish, texnologik jarayonlarni, izlanuvchanlik, texnik ijodkorlik, shuningdek, ruhiy muhitni boshqara olish;

- amaliy ko'nikmalarga egaligiga ko'ra pedagogik qobiliyatlar, pedagogik ko'nikmalar – rejalashtirish, amaliy mashqlarni bajara olishi, sozlash, nuqsonlarni bartaraf etish, texnik obyektlarga ishlov berish ko'nikmalari, bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko'chira olishi, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olishi, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olishi, o'zini kasbiy-axloqiy jihatdan tutishi;

- o'z-o'zini boshqara olishiga ko'ra – faoliyati va o'zini tahlil qilish, baholash, individual muloqot metodini ijtimoiy-kasbiy sohadagi tajribalar bilan qiyosiy baholash, ijodiy jarayonda refleksiya qila olish qobiliyati, o'z individualligining rivojlanishi, kasbiy faoliyati va xulqidagi shaxsiy fazilat hamda kamchiliklarini aniqlay olish qobiliyati, kasbiy rivojlanishda davom etish imkoniyatlarini aniqlash ko'nikmasi, unga nisbatan o'z munosabatini boshqara olish.[16]

O'rganilayotgan muammo doirasida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan ta'limdagi islohatlar, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlar va ilg'or pedagogik texnologiyalari bilan ta'minlash hamda uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish asosiy vazifalardan etib belgilangan.

Hozirgi kunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-shaxsiy fazilatlarini yaxshilash, kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ta'limning asosiy elementlarini loyihalash, uning mazmunini tubdan yangilash va innovatsion faoliyatni texnologiyalashtirish extiyoji tug'ilmoqda. Aynan mana shu yerda bo'lajak o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatlariga texnologik jihatdan tayyor emasliklari ko'zga tashlanadi, shu sababdan davlat ta'lim standartlari tomonidan mutaxassislarining malaka talablariga qo'yiladigan talablarga javob berish qiyin bo'lib qolmoqda, bunda turli xildagi texnologiyalashtirilmagan metodikalardan foydalanish, texnologiya va metodika o'rtasidagi tafovutni anglab yetish muhim o'rin tutadi.

Oliy ta'limda texnologik yondashuvdan faol va keng foydalanish bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'lim natijalariga erishishda samarali faolligini oshirish, muammolarni hal qilishning yanada samarali usullarini tanlash imkoniyatlarini kengaytirish vositasidir.

Zamonaviy oliy ta'limda ta'lim jarayonini tashkil etishga qo'yilgan talablar nafaqat yuqori kasbiy faoliyatni amalga oshirishga, balki innovatsion jarayonlarni amalga oshirishga qodir bo'lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirish va ijodkorligini namoyon etishdir. Bu strategiya ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanish va kasbiy yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanilgandagina samarali bo'lishi mumkin.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ta'minlab berilishi kerak: umumtexnik bilimlar asosini egallash, o'qishni davom ettirishga tayyorlash, pedagogik faoliyatga jalb etish (masalan, loyihalash faoliyati, loyihalash faoliyati elementlariga ega laboratoriya ishlarini bajarish va boshqalar), tashabbus va ijodkorlikni rivojlantirish, shuningdek zamonaviy ta'lim texnologiyalari, shakl va vositalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga imkon beradigan va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan faoliyatlarga jalb etish.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash natijasida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilari kasbiy vazifalarni bajarishga tayyor bo'lishlari kerak hamda ularni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlari e'tiborga olinishi kerak.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarni kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- shaxsiy sifatlar va yo'nalganlik (vatanparvarligi, qiziqishi, qadriyatlari yo'nalishi, motivatsiya);
- ma'lumot darajasi (bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati);
- tarbiyalanganligi darajasi (ma'naviy, estetik, jismoniy, kasbiy, madaniy);
- ijtimoiylashish (kasbiy va ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirish, ijtimoiy qoidalar va qadriyatlarni idrok qilish);
- madaniyatlilik (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni idrok qila olishi, intellektual, aqliy, jismoniy madaniyati, munosabatlari mazmuni va xulq-atvori).

Kasbiy-pedagogik tayyorlashning metodik tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi. O'qitishni maqsadi, natijasi, tayyorgarlik mazmuni, o'qitish jarayoni, ta'lim jarayoni komponentlari va pedagogik shart-sharoitlari. Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyrgarligini rivojlantirishning muhim sharti uning kasbiy o'zini o'zi o'qitish uchun motivatsiyasidir

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarida kreativ sifatlar quyidagilardan iborat:

- motivatsion kasbiy va pedagogik yo'naltirilganligi, o'z bilimlari, qobiliyatlari, ko'nikmalarini egallash va amalga oshirishga shaxsiy munosabati, kelajakdagi kasbiy faoliyatga bo'lgan qadriyatlarga munosabati va muvaffaqiyatga erishish istagi;

- bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarida kasbiy faoliyatining asosi bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, kreativlikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan bilim faoliyatining ijodiy xususiyatlari;

- prakseologik kasbiy muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyati bilan tavsiflanadi hamda shaxs tomonidan kasbiy qadriyatlar, bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini ochib beradi va mutaxassis sifatida o'zini o'zi anglashni nazarda tutadi.[5.121-b.].

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kognitiv bilimlarni egallashi va kreativ fikrlashiga ta'sir qiluvchi omillar:

innovatsion–egallangan yangi bilimlarni haqiqiy harbiy harakatlarda amalda qo'llay olishi va o'z ustida muntazam ishlashi hamda harbiy mashg'ulotlarda olgan bilimlarini yosh avlodga yetkaza olishi;

kommunikativ–harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, Vatanimizning hududiy yaxlitligini asrash va uni himoya qilish, o'z jonini fido qilib so'nggi nafasigacha vatanni himoya qilish, harbiy mashg'ulotlarda olgan bilimlarini haqiqiy jang maydonlarida qo'llay olishi;

konstruktiv–harbiy faoliyat bilan bog'liq tizimli bilim va ko'nikmalarni egallashi;

axborot oluvchi–turli axborot-informatsiyalarga ega bo'lishi va ularni yig'ish, saqlash va harbiy faoliyat nuqtayi nazardan tahlil qilish usullarini ishlab chiqishi, o'z harbiy professional faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila olishi;

muammolarni sintez qiluvchi – harbiy ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, harbiy moddiy ta'minotni tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy harbiy yondashuvlarni hisobga olish, harbiy o'quv materiallarini tizimlashtirish;

nostandart fikrlash qobiliyati[22; 122-b.]. – harbiy ta'lim jarayoniga taalluqli interaktiv ta'lim metodlarini va yangi turdagi qurol-aslaha harbiy texnikalarni qo'llay olish, kreativ yondashuv asosida turli harbiy holatlarda kreativ fikrlash asosida vaziyatlardan chiqish qobiliyati;

zaruriy informatsiyaga ega bo'lish–ijtimoiy va internet tarmoqlaridagi eng yangi qurol aslaha texnikalardan xabardor bo'lish va ularni qo'llay olishi, olingan yangi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va uni topish.

Shunday qilib, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining ilmiy bilish va amaliy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli egallashiga qaratilgan ta'lim jarayonini tashkil qilishda tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega. Chunki, o'qitish jarayonida bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisida ongllilik, qiziquvchanlik, tartiblilik, birgalikda ijod qilish sifatleri shakllanadi. Aniqlangan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar "Umumharbiy nizomlari" va "Saf tayyorgarligi" o'quv fanlarini o'qitishda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashni ta'minlaydi.[19].

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish texnologiyasi quyigagi ta'lim metodlari va texnologiyalari asosida amalga oshiriladi:[19].

a) Muammoli o'qitish texnologiyasi – muammoli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi, o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash bilan birga ta'lim oluvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy ta'lim oluvchilar, o'qituvchilardan loyiha va muammoli ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida ularni maqsadli qo'llashni talab etadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, "Umumharbiy nizomlari" va Saf tayyorgarligi" o'quv fanlarini o'qitishda texnologik yondashuv asosida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishi mumkin ekan.

"Flipped-Class" texnologiyasida o'quv jarayonining asosiy qismlari bo'lgan dars bilan uyga vazifaning o'zni almashtirilib, avval uyga vazifani bajarish jarayonida video, audio va boshqa interfaol materiallar o'rganiladi va bo'lajak darsga tayyorgarlik ko'riladi, keyin darsda mavzu mazmunini amalda qo'llash masalalari ko'riladi.

“Flipped Class” texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha dastlabki tajribalarni XX asrning 90-yillari boshida AQSHning Garvard universiteti professori Erik Mazur o‘tkazgan. Ta’limning ushbu shakli AQSHda 2004 yildan boshlab rivojlantirilgan (Woodland Park High School, Colorado). “Flipped Class” texnologiyasida o‘qituvchi tomonidan o‘quv materiallari oldindan video va audio darslar tayyorlab olinadi. Tayyorlangan video va audio darslar talabalarga elektron tashlab beriladi. Talabalar o‘quv materialining asosiy qismini auditoriyadan tashqari mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va olgan bilimlarini amaliy mashg‘ulot jarayonida yanada mustahkamlaydilar.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot ishlari va didaktik vositalar quyidagilarni amalga oshirish imkonini berdi - bo‘ljak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisini tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun bu yo‘nalishdagi optimal variantini tanlash imkoniyati borligini aniqlash, yaratilgan o‘qitishning didaktik vositalari asosida OTMLar DTSda talab etilgan darajada ma’lumotlarni egallash, yaratilgan sillabuslar va interfaol metodlarni qo‘llab o‘tiladigan darslarning mavzularini o‘rganish samaradorligini aniqlash va uni amaliyotga joriy etishga oid uslubiy tavsiyalar tayyorlash, “Umumharbiy nizomlari” va “Saf tayyorgarligi” o‘quv fanlarini o‘qitishning kompyuterli variantini joriy qilish va shunga mos o‘quv dasturiy vositalar ishlab chiqish mumkinligi va unda vaqt tejalib yangi o‘quv ma’lumotlarni tejalgan vaqt hisobiga berish mumkinligi aniqlandi. “Umumharbiy nizomlari” va “Saf tayyorgarligi” o‘quv fanlarini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantiradi, jumladan talabalardan saf uquvi va bo‘linmalarga komandirlik qilish bo‘yicha amaliy bilim va ko‘nikmalarini takomillashtiradi hamda o‘rganiladigan fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni sifatli o‘tkazish bo‘yicha malakalarini shakllantiradi.[21].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.
2. O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son qarori.
3. Ахроров С.Ю. Харбий хизматчилар шахсида девиант хулқ намоён бўлишининг ижтимоий хусусиятлари. Соц.фан.ном.дисс...Тошкент: ЎЗМУ. 2008 й. 180 б.
4. Axatov S, To‘xtanazarov I. Chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va o‘qitish metodikasi fanidan darslik. Farg‘ona nashriyoti-2022 y. 124-125-b.
5. Jalilov N.A. Harbiy ta’lim fakultetlari talabalarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari // Pedagogika. – Toshkent, 2022. – 6-son. –B. 119-121 (13.00.00; № 6)
6. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
7. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 311-317.
8. Каримова, М. (2021). Моделирование процесса профессиональной подготовки специалиста. *Общество и инновации*, 2(8/S), 274-282.
9. Каримова, М., & Тоджиев, Х. (2021). Особенности технологической организации процесса обучения. *Общество и инновации*,
10. Муслимов Н.А ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.
11. Mukaddas Otajonovna Karimova. (2023). Development of Creative Abilities of Students Based on Innovative Technologies - as a Pedagogical Problem . *International Journal of Formal Education*, 2(12), 60–66. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/1605>
12. Mukaddas Otajonovna Karimova. (2023). Types and Criteria Of Talent. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 24, 13-18. Retrieved from <https://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/990>
13. Rafikova, D., Karimova, M., Yuldasheva, N., Oltmisheva, N., Rustamova, N., & Sodikov, U. (2023, June). Preparing to innovative activity: Problem solving. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
14. Сотволдиев А.Ю. “Чақирувга қадар ҳарбий таълимни ташкил этиш ва унинг методикаси” Ўқув қўлланма, I-II - қисмлар, 2007 йил
15. Сотволдиев А.Ю. Пути эффективного использования метода беседы и наглядных методов на занятиях военного образования. *Наука, техника и образование* 2019.№4(57) Российский импакт-фактор:1,84 Научно-методический журнал.
16. Сотволдиев А. Ҳарбий таълимда кейс стадини адаптациялашнинг айрим масалалари. ТДПУ “Педагогика журналі” 2/2017, Б. 67-71.

PEDAGOGIKA

17. Tojiyev X. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlari fani. Darslik. Farg'ona nashryoti. 2022 y. 272 b.
18. Tojiyev X.. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari fanidan darslik. Farg'ona nashryoti-2022 y. 86-b.
19. Tojiyev X. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari fanidan darslik. Farg'ona nashryoti-2022 y. 90-93 b.
- tayyorgarligini rivojlantirish. Monografiya. Farg'ona nashryoti. 2022 y. 126 b
20. Тожиев Х. Взаимодействие педагогов с родителями учащихся образовательных учреждений в их воспитании. ~~Хабарчи йамалы конференция 19.02.2020 Россия, Белгород Сборник научных трудов~~
21. Tojiyev X. Content of development of professional training of future teachers on the basis of technological approach. Published in Volume 6 Issue 6, Peer Reviewed Referred Journal Indian.06.12.2021-yil. 1-2 bet
22. Tojiyev X. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish". PEDAGOGS international research journal 15.04.2022-yil.
23. Tojiyev X. Developing professional lexical competence among future teachers. In the 3rd International Conference on Advance Research in Humanities hosted online from New York, USA on June 28th 2022.
24. Yarashev S.S. O'zbekiston oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish. Uzluksiz ta'lim.2023- 1-son.40-43 bet.
25. Yarashev S.S. O'zbekiston oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish zaruriyati. Pedagogika. 2023-1-son.102-106 bet.